

**ALISHER NAVOIY O'ZBEK TILINING ASOSCHISI**

Yakubov Shuhrat Shokirovich

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti fakulteti katta o'qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada jaxon adabiyotining buyuk siymolari, insoniyat ma'naviyatini shakillantirgan daxolar, ular orasidan uyg'onish davrida Alisher Navoiy (Sharq renessansi) kabi so'z sanatkori o'z asarlari bilan davrlar va makonlarni birlashtirgan inson ruxiyatini teran tasvirlagan buyuk alloma to'g'risida gapiriladi.

Ushbu ijordkorlarning har biri insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan, o'z xalqi va jaxon madaniyatining ajralmas qismiga aylangan daxo hisoblanadi.

Анотация: в этой статье рассказывается о великих деятелях мировой литературы, великие писатели сформировавших духовность человечества, среди которых такой художник слова, как Алишер Навои (восточное возрождение) в период возрождения, глубоко изобразивший человеческую свободу, соединивший в своих произведениях эпохи и пространства.

Каждый из этих иждевенцев велик, оставивший глубокий след в истории человечества, ставший неотъемлемой частью своего народа и мировой культуры.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, ma'naviyat, yuksak me'ros, uyg'onish davri, yodgorlik, ijod.

Ключевые слова: Алишер Навои, духовность, высокое наследие, ренессанс, памятник, творчество.

O'zbek romanchiligi maktabi yo'qolib bormoqda lekin xech kim tashvish qilgani yo'q. Yaratilayotgan asarlarda qaxramon o'zbek bo'lsa u albatta, o'zbekcha gapirishi, o'zbekcha fikirlashi kerak, lekin bunday bo'lmayapti. Biz bugun Navoiyni saqlab qolishimiz kerak, Navoiy bizga vatanni qanday sevisht kerakligini o'rgatib ketkan.

Oradan vaqt o'tib mug'illarga tobe bo'lganmiz, shuning uchun chig'atoylarga bizning tilimiz, vaqtida chig'atoycha til deb ham atalgan, lekin, oradan vaqt o'tib 1370 yilda Soxibqiron Amir Temur, temuriylar imperiyasiga asos solgan va tilimiz ma'lum bir miqdorda qutkarilgan. Oradan vaqt o'tib hazrat Alisher Navoiy bizning tilimizda g'azallar va asarlar yozgan hamda tilimizni yana xam mustaxkamlagan va boyitgan. Agar etibor bersak Alisher Navoiy asarlaridan keyin fransuz shoirlari, yozuvchilari bizni tilimizni o'rgangan, bu orada Fotix Mexmet Sulton ham bizni tilimizni o'rgangan va o'zbek



adabiyotiga katta qiziqish bildirgan. O‘zbek tili asoschilari va tom manoda qutkaruvchilari desak ham bo‘ladi, bular xazrat Alisher Navoiy bilan Maxmud al-Qashqariy xissoblanadi.

Tilimiz ko‘p davrlar ichra assimilyatsiya bo‘ldi, yani forsha, arabcha, ruscha so‘zlar, atamalar aralashib ketdi, tilimizni asrashimiz kerak, tilimizni yo‘qotkan kunimiz, tariximizni, millatimizni yo‘qotgan kunimiz bo‘ladi.

Al qissa, millatni borligini isbotlovchi, tili va tarixi, shu ikki narsa bolmasa millat bolmaydi, shuning uchun tarixga boy tilimizni asrashimiz kerak. Tilimiz ko‘k turkiychaga borib taqaladi so‘ng xoqoniy turkcha keyin chig‘atoycha va Navoiy tili ha, bir vaqtlar o‘zbek tilini Navoiy tili deb ham atashkan. Alisher Navoiy, “Muxokamat ul-Lugatayin” kitobida o‘zbek tili to‘g‘risida juddayam chuqur tushunchalar berib o‘tadi. Navoiy “Muxokamat ul-Lug‘atayin” kitobida o‘zbek tilining boyligi va qudratini, o‘sha davr adabiy tillari qatoridan joy olish qobiliyati va huquqini, ilmiy jihatdan isbotlab berdi. Asarda o‘zbek (turk) va fors tillari unli tovushlar, so‘z boyligi va morfologiyasi jihatidan taqqoslangan.

Alisher Navoiy buyuk o‘zbek shoiri, muttufakiri va davlat arbobi bo‘lib, jaxon adabiyotiga turkiy tili (chag‘atoy)ning yuksak adabiy til sifatida qaror topishi, gumanistik sherlar (beshlik) yaratilishi, shariy janrlarning (gazal ruboiy) rivojlanishi, g‘oyalar sinteziga qo‘shkan xissasi xisoblanadi, u turkiy adabiyot poytaxti xissoblanadi, uning asarlari o‘rta osiyo va undan tashqari halqlar adabiyotiga tasir korsatkan.

O‘zbek adabiyotining asoschisi: Navoiy tarixda birinchi bo‘lib Turkiy (chagatoy) tilida, fors tilidan kam bo‘lmagan badiiy asarlar yaratish mumkinligini isbotlab berdi, bu esa uni o‘zbek adabiy tilining asoschisiga aylantirdi.

“Xamsa” beshlik yaratilishi: Navoiy turkiy shoirlar ichida birinchi bo‘lib Nizomiy ananalariga amal qilgan holda, lekin o‘ziga xos o‘brzlar olami va ijtimoiy mavzularini kiritkan holda besh dostonidan iborat mumtoz “Xamsa”ni yaratdi.

Insonparvarlik va dolzarbliigi: Navoiyning “Maxbub Al-kulub” kabi falsafiy risolalari va shariyatida adolat, tinchlik, ma‘rifat, yuksak insoniy rux g‘oyalari targ‘ib kilingani uning ijodini xamisha abadiy va dolzarb qiladi.



Ijodiy meros: Navoiy ortda ulkan meros koldirdi, sherlar, qasidalar to‘plami, shuningdek adabiyotshunoslik, shariyat nazariyasi va tillarga oid ilmiy risolalar yaratdi.

Halqaro e’tirof: Navoiy asarlarining qo‘lyozma nusxalari dunyoning eng yirik kutubxonalari (Fransiya, Buyuk britaniya, Oksford) da saqlanadi va uning ijodi jaxon madaniy merosining bir qismi sifatida o‘rganiladi.

Fransiyalik olim Mark Toutant Alisher Navoiyning “Xamsa” asari yuzasidan olib borgan tadqiqotida “Xamsa”ning ko‘proq Amerikaning Michigan universiteti va Parij Milliy kutubxonasiga ikkita qo‘lyozmasiga suyanadi. Amerikaning Michigan universiteti kutubxonasida saqlanayotgan navoiyning “Xamsa” asari qo‘lyozmasi 1485 yilda, yani bu asar yozib tugallangan vaqitda, Xirotda ko‘chirilganligi bilan axamiyatlidir. Olimlarimiz tomonidan Navoiy asarlari qo‘lyozmalari dunyo bo‘yicha 3500 tagacha bo‘lishi mumkunligi aytiladi.

Alisher Navoiy ijodi madaniyatlar aro muloqot rivojiga xizmat qiladi, Sharq va jaxon sivilizatsiyalarini bog‘lovchi koprik sanaladi.! [1]

Alisher Navoiyning jahon adabiyotiga qo‘shgan hissasi quyidagicha: O‘zbek tilida an’anaviy she’rlarning birinchi epik siklini yaratdi. Navoiy ijodining cho‘qqisi “Xamsa” (beshlik), “Hayrat ul-abror”, “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” kabi beshta she’riy to‘plami hisoblanadi. Ushbu jarayon halq dostoniga asoslangan bo‘lib, o‘zbek mumtoz adabiyotining namunasi, shuningdek, jahon adabiyotining yodgorligi hisoblanadi. [2]

Navoiydan oldin hech kim eski o‘zbek tilda yozmagan, uni juda qo‘pol deb hisoblashgan ayni Alisher Navoiy ijodi yozuvchilar ijodiga eski o‘zbek tilining kirib kelishiga sababci bo‘lgan.

“Tilsiz millat bo‘lmaydi”, deydi buyuklardan biri va bu haqiqat bilan xech kim bahslasha olmaydi. O‘zbek tilining asoschisi Alisher Navoiy, zamonaviy rus tilida esa A. S. Pushkin edi. Navoiy dahosi deyarli universal edi, shoir, olim, musiqachi, me’morchilik, rassomlik va badiiy hunarmandchilikning buyuk bilimdoni va homiysi A. Navoiy zamonning eng ilg‘or g‘oyalarini ilgari surgan holda, davrning ko‘zga ko‘ringan onglari



orasida yuksaldi va o'zbek adabiyotini jahon sahnasiga olib chiqdi. U haqli ravishda o'zbek mumtoz adabiyotining asoschisi hisoblanadi.[2]

Alisher Navoiy ijodi allaqachon butun ilg'or insoniyat mulkiga aylangan. U o'z she'rlarida kamtarlik, mehr-oqibat, Vatanga, odamlarga muhabbat kabi fazilatlarni ulug'lagan. Bu qadriyatlarning barchasi butun dunyodagi qadriyatlardir. Alisher Navoiy insonning aql-idrokka ega bo'lishiga katta ahamiyat bergan, bu yuqoridan berilgan buyuk in'omdir, hech bir olmos va yoqutni aql bilan solishtirib bo'lmashligini aytgan. [3]

Alisher Navoiyning boy merosi nafaqat Sharq, balki G'arb olimlarida ham qiziqish uyg'otdi. Gruzin shoiri Nodar Sitsiashivili XVII-asrda Alisher Navoiyning "Sabbi sayyor" dostoni asosida o'zining "Baramguriyani" asarini yaratdi. Buyuk ajdodimiz dostonini Nizomiy va Xusrav Dehlaviylar ijodi bilan solishtirib o'rgangan, shoir undan o'z asarining asosi sifatida foydalangan.

XVI-asr oxiri, XVII -asr boshlarida Alisher Navoiy asarlari to'rt marta italyan va besh marta nemis tillarida nashr etilgan va shu bilan birga, "Muxokamat-ul lugatain" ning nemis tiliga tarjimalarini qayd etish o'rinli, "Mahbub-ul qulub", "Farhod va Shirin" Alfred Krella tomonidan oxirgi tarjima qilingan asar olimlar tomonidan yuqori badiiy darajada baxolandi.

XIX-asrdan boshlab fransuz sharqshunoslari ham Alisher Navoiy merosiga alohida qiziqish bildirib boshladilar, shoir hayoti va ijodini chuqur o'rgandilar, E.Bertels., Lui Aragon., Maxtumkuli., bu masalalarni ayniqsa chuqur o'rganib, Alisher Navoiyning adabiy merosi, asrlar davomida xalq hotirasida saqlanib qolishini ta'kidlaganlar. [3]

Alisher Navoiyning "Foniy" taxallusi bilan bitilgan "Lison ut-tayr" asari o'zbek adabiyoti qolaversa jaxon adabiyotining eng yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. Binobarin, bu asarning jaxon so'z sanatida aloxida o'rni bor. Mazkur asar ingliz tilida chop etilib G'arb mamlakatlarida Alisher Navoiy asarlarini o'rganish yangi bosqichi boshlanganligini yaqqol ko'rinishidir, bu - mag'rurlik hissi. Shuni ta'kidlash mumkinki, Yevropa xalqlari ham Buyuk o'zbek halqining, global ahamiyatga ega boy merosi, ajdodi bilan yaqindan tanishish istagida.



Tarixchi olim Xondamirning ma'lumot berishicha XV asirning oxirlarida Alisher Navoiy asarlarini yuborishni iltimos qilib, turli davlatlardan Xirotki tinmay maktublar kelib turgan. Shoir devonlari podshoxu sultonlarga, amiru amaldorlarga eng qimmatbaho sovg'a sifatida taqdim etilgan.

Xulosa: Yuqoridagilardan xulosa chiqargan holda bugun o'zbek millatida mustaqillik ma'naviyatini tarbiyalash barcha tarixiy madaniy boyliklarning asosiy tomonlarini o'rganish, milliy madaniyatimiz rivoji, davri, taraqqiyot qonuniyatlari, ma'naviy boyliklarni yaratgan yirik siymolar, donishmand adiblarning merosini o'zlashtirish, boshqa rivojlangan mamlakat madaniyati yutuqlarni o'rganish, ularga nisbatan hurmat-izzatda bo'lishni, va bu masalalar bo'yicha keng ko'llamli ishlarni olib borish talab etiladi. Bugungi bizga yaratib berilayotgan sharoitda, yosh avlodni, milliy-madaniy boyliklarini yaxshi bilgan, milliy g'urur, vatanparvrlilik xissi bilan yo'g'rilgan, dunyo madaniy rivojlanish darajasidan xabardor bo'lib yetishuvida yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Alisher Navoiy" roman I. Sultonov
2. "Jaxon adabiyoti" – adabiy-badiy, ijtimoiy-publitsistik jurnal ISSN 2010-5517 indeks 828, 829.
3. Internet tarmog'i. Ziyonet kutubxonasi.